

№	MUNDARIJA	Page
1.	<i>YANGI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI SHAROITIDA AHOLINI IJTIMOIY HIMoyalashning Moliyaviy Zarurligi va Ahamiyatini Ametova Fotimajon Rozmatovna</i>	3
2.	<i>PRIMENENIE MCFO 17 V STRAHOVAY SISTEME UZBEKİSTANA: PERСПЕКТИVY VNEDRENIYA I POTEНCIALNYYE PROBLEMY. ANALIZ REZERBOV I ZAKONODATELNYX BARYEROV Baramtova Dinora Alisherovna</i>	6
3.	<i>SUG'URTA POLISINI TANLASHDAGI MUAMMO VA AFZALLIKLAR Yo'ldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	10
4.	<i>O'ZBEKİSTONDA "YASHIL SUG'URTA" MAHSULOTLARINI JORIY ETISH MASALALARI Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	13
5.	<i>SUG'URTA TASHKILOTLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH Umarova Gulnora Akromovna</i>	16
6.	<i>O'ZBEKİSTONDA AVTOMOBİL TRANSPORT SUG'URTASINI TAKOMILLASHTIRISH Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	18
7.	<i>O'ZBEKİSTONDA AVTOTRANSPOST SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASINING O'RNI Yakubova Nargiz Tursunbayevna, Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	20
8.	<i>O'ZBEKİSTONDA SUG'URTA TIZIMI VA UNDAGI XAVFLAR Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi, Akbaraliyeva Diyora</i>	22
9.	<i>PERСПЕКТИVY I BARYERY RAZVITIYA ISLAMSKOGO STRAHOVANIIA (TAKAFUL) V UZBEKİSTANE Myradova Dilgora Abdusaliyevna</i>	26
10.	<i>YASHIL SUG'URTA TURLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI: ILMIY-NAZARIY VA AMALIY YONDASHUV Erkaboev Yorbek Boirbekovich</i>	31
11.	<i>MILLIY SUG'URTA BOZORIDA INFORMATSION RISKLARNI SUG'URTALASHNI TAKOMILLASHTIRISH Xolbaev Azamat Yuldashevich</i>	34
12.	<i>PREIMUЩESTVA STRAHOVANIE I EGO ROL' V EKONOMIKE Umurova Xurshida Olimjonsonovna</i>	38
13.	<i>OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSIALASH: HOMIYLIK MABLAG'LAG'LARIDAN FOYDALANISH Dildora Bohodirovna Abdusattarovna</i>	42
14.	<i>SUVEREN KREDIT REYTING AGENTLIKLARINING BAHOLASH METODOLOGIYASIDAGI KAMCHILIKLARI TAHЛИI Tog'auniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	45
15.	<i>ZELÉNIE OBLIGACII I KREDITY: NOVYYI VEKTOR USTOЙЧIVOGO PОСTA UZBEKİSTANA Gulyumkhamedova Dilbar Bahtiyer kizi, Karimov Komiljon Xamidovich</i>	48
16.	<i>ZELÉNAЯ EKOНОMICKA UZBEKİSTANA: PUT' K USTOЙЧIVOMU RAZVITIYU CTRANI Gulyumkhamedova Dilbar Bahtiyer kizi</i>	51

“O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

1. Teshabayev To'lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo'jayevich (Kengash raisi o'rinnbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o'rinnbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich ("O'zbekinvest" eksport-import sug'urta kompaniyasi" AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To'lovlarni kafolatlash jamg'armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O'zbekiston sug'urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishslash markazi rahbari, dots.).
10. Quldashev Qamariddin Mansurovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasni professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Moliya" kafedrasni mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.)
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasni mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasni professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A'zamjonovich ("Kafil Sug'urta" AK sug'urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O'zbekiston madaniyat va san'at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullahayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU "Moliya bozori va sug'urta" kafedrasni mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrasni professori, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasni professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G'iyozovich (TDIU Magistratura bo'yicha dekan o'rinnbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU "Yashil iqtisodiyot" kafedrasni professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU "Sug'urta" kafedrasni professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU "Marketing" kafedrasni dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU "Sug'urta" kafedrasni dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo'latovich (TDIU "Sug'urta" kafedrasni dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o'g'li (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasni dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasni dotsenti, i.f.n.).



SUG'URTA TASHKILOTLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Umarova Gulnora Akromovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o'qituvchisi
gumarova928@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss3/291

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyatini takomillashtirish masalalari o'rganilgan. Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda va ularning daromad bazasini kengaytirishda investitsiya faoliyatining o'rni alohida ta'kidlangan. Ishda O'zbekiston sug'urta bozorida mavjud bo'lgan holat tahlil qilinib, xorijiy tajribalar bilan solishtirildi. Shuningdek, sug'urta tashkilotlari investitsiyalarining tarkibi, samaradorlik ko'rsatkichlari va investitsiya siyosatini shakllantirishda yuzaga keladigan muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari sug'urta kompaniyalarining investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish, risklarni boshqarish va investitsiya strategiyasini optimallashtirishga qaratilgan yondashuvlarni taklif etadi.

Kalit so'zlar: Sug'urta tashkilotlari, investitsiya faoliyati, moliyaviy barqarorlik, investitsiya portfeli, risklarni boshqarish, daromadlilik, diversifikatsiya, investitsiya siyosati, sug'urta bozori, iqtisodiy samaradorlik.

Abstract: In this scientific work, the issues of improving the investment activities of insurance organizations are studied. The role of investment activities in ensuring the financial stability of insurance companies and expanding their income base was emphasized. In the work, the current situation in the insurance market of Uzbekistan was analyzed and compared with foreign experiences. Also, the composition of investments of insurance organizations, performance indicators and problems arising in the formation of investment policy were determined, and suggestions and recommendations were developed for their elimination. The research results suggest approaches aimed at diversification of insurance companies' investment portfolio, risk management and optimization of investment strategy.

Keywords: Insurance organizations, investment activity, financial stability, investment portfolio, risk management, profitability, diversification, investment policy, insurance market, economic efficiency.

Абстрактный: В данной научной работе изучаются вопросы совершенствования инвестиционной деятельности страховых организаций. Подчеркнута роль инвестиционной деятельности в обеспечении финансовой устойчивости страховых компаний и расширении их доходной базы. В работе проанализирована текущая ситуация на страховом рынке Узбекистана и сопоставлена с зарубежным опытом. Также определены состав инвестиций страховых организаций, показатели деятельности и проблемы, возникающие при формировании инвестиционной политики, а также разработаны предложения и рекомендации по их устранению. Результаты исследования предлагают подходы, направленные на диверсификацию инвестиционного портфеля страховых компаний, управление рисками и оптимизацию инвестиционной стратегии.

Ключевые слова: Страховые организации, инвестиционная деятельность, финансовая устойчивость, инвестиционный портфель, управление рисками, рентабельность, диверсификация, инвестиционная политика, страховой рынок, экономическая эффективность.

Kirish (Введение/Introduction).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urta tashkilotlari nafaqat aholining va xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy xatarlarini kamaytirishda, balki investitsiya faoliyatini amalga oshirish orqali iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shvuchi muhim institutlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Sug'urta tashkilotlarining yig'ilgan sug'urta mukofotlarini to'g'ri yo'naltirishi, ularni samarali investitsiyalarga aylantirishi moliyaviy barqarorlik va raqobatbardoshlik darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Investitsiya faoliyati sug'urta kompaniyalarining daromad bazasini kengaytirish, sug'urta zaxiralini saqlash va ularni ko'paytirish, shuningdek, iqtisodiyotning turli tarmoqlariga kapital qo'yilmalarini amalga oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Biroq, amaldagi investitsiya strategiyalarining yetarli darajada samarali emasligi, moliya bozorlarining rivojlanmaganligi va normativ-huquqiy bazaning takomillashmaganligi ushbu sohadagi dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Mazkur maqolada sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyatini chuqr tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish asosiy maqsad qilib olingan. Shu orqali sug'urta sektorining investitsion imkoniyatlarini to'liq ro'yogba chiqarish va milliy iqtisodiyotda ularning rolini kuchaytirish mumkin.

Adabiyotlar tahlili. (Обзор литературы / Literature review).
Sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyati sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlamalar ushbu masalaning dolzarbligini tasdiqlaydi. Turli mahalliy va xorijiy olimlar ushbu yo'nalishda turli

yondashuvlarni ilgari surganlar. X.M.Shennaev o'quv qo'llanmalarida sug'urta bozori infratuzilmasi va uning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri tahlil qilingan. Investitsiya faoliyatining sug'urta kompaniyalari daromad manbai sifatida o'rni ko'rsatib o'tilgan.[1] T.S. Malikov – "Moliya" oquv qollanmasida moliyaviy bozorlar, jumladan, sug'urta kompaniyalarining u yerda ishtirot etish mexanizmlari bayon etiladi. Sug'urta tashkilotlari investitsiyalarning uzoz muddatlari moliyalashtirish vositasi sifatida qaraladi.[2] Xorij olimlidan G.E.Rejda – Sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyati – risklarni boshqarishning ajralmas qismi sifatida baholangan. Kapitalni joylashtirish strategiyalar (obligatsiyalar, aksiyalar, ko'chmas mulk) misolida yoritilgan.[3] A. Karimov – O'zbekiston sharoitida sug'urta kompaniyalari aktivlarini samarali joylashtirishning muhim yo'nalishlarini taklif qiladi. Qimmatni qog'ozlar bozorining sayozligi investitsiya imkoniyatlarini cheklashi ko'rsatilgan.[4] Rejepov M. esa institutsional islohotlar, moliyaviy vositalarining ko'paytirilishi va davlat siyosatining muvoofiqlashtirilishi taklif etilgan. Shuningdek, aktuar hisob-kitoblar asosida investitsion qarorlar qabul qilish zarurligi ta'kidlangan. [5] M. Islomov asarlarida sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligi bilan investitsiya portfelining sifati o'tasidagi bog'liqlik ko'rsatilgan. Muallif risklarni segmentlarga ajratgan holda investitsiya qilish taktikalarini taklif etadi. [6]D. Qodirov – kitoblarida O'zbekiston sharoitida amaldagi qonunchilik asosida investitsion faoliyatni yuritish imkoniyatlari tahlil qilingan. [7] Sharipov Shasarlarida Portfel nazariyasi asosida turli aktivlarga mablag' yo'naltirish usullari ko'rsatilgan (masalan, davlat obligatsiyalari,

depozitlar, aksiyalar). Risk-return (xavf-daromad) mutanosibligi doirasida optimallashtirish masalasi muhokama qilingan.[8]

Tadqiqot usullari (Методология/Methodology).

Tadqiqotni amalga oshirish davomida ekspert baholash, umumlashtirish, taqqoslash, tarixiy va mantiqiylar yondashuv, tanqidiy tahlil, statistik ma'lumotlarni guruhlash usullaridan foydalанилди.

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты. Analysis and results).

O'zbekiston sug'urta kompaniyalarining investitsiya portfeli asosan qisqa muddatli likvid aktivlardan iborat bo'lib, ko'pchilik kompaniyalar obligatsiyalar, depozitlar va qisqa muddatli moliyaviy vositalarga ustunlik beradi. Bu esa uzoq muddatli investitsiyalarning kamligi, iqtisodiyotning rivojlanishida investitsiya faoliyatining to'liq ro'yobga chiqmasligiga sabab bo'lmoxda. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, sug'urta kompaniyalarining investitsiyalardan olinayotgan daromadlik darajasi o'rtacha darajada (5-7% atrofida) bo'lib, bu ko'rsatkich xalqaro standartlarga nisbatan past hisoblanadi. Bu esa investitsiya strategiyalarining samarador emasligini ko'rsatmoqda. Ko'p sug'urta tashkilotlarda investitsiya risklarni boshqarish tizimi yetarlicha rivojlanmagan, risklarni baholash va diversifikatsiya darajasi past. Bu esa investitsiyaviy faoliyatdagi noaniqliklarni oshiradi va kompaniyalar moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro sug'urta kompaniyalari uzoq muddatli investitsiyalarni rivojlantrishga katta e'tibor qaratib, portfellarning diversifikatsiyasini ta'minlaydi, shuningdek, yuqori darajadagi risklarni boshqarish mexanizmlarini joriy qilgan. Bu esa ularning barqaror daromad olishiga yordam beradi.

Istiqbolli loyihiyar milliy agentligi (ILMA) ma'lumotlariga ko'ra, joriy yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda 33 ta sug'urta kompaniyasi faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 5 tasi hayotni sug'urtalovchi tashkilotlardir.

Sug'urta kompaniyalari tomonidan kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmi qariyb 6,5 trln so'mni tashkil etib, 2023-yilning shu davriga nisbatan 6,4% ga o'sdi. Investitsiyalarning 70,1% ni depozitlar, 19,9% ni qimmatli qog'ozlar, 6,9% ni esa ko'chmas mulklar tashkil etdi.

1-jadval ¹ O'zbekistondagi sug'urta Kompaniyalari investitsiyalari (2024-yil 1-yanvar holatiga)	
Ke'rsatkichlar	Qiyomat / Foiz
Jami sug'urta kompaniyalari soni	33 ta
Shundan hayotni sug'urtalovchi kompaniyalar	5 ta
Kiritilgan umumiy investitsiyalar hajmi	6,5 trln so'm
O'sish sur'ati (2023-yilga nisbatan)	6,4%
Investitsiyalarning turkib:	
- Depozitlar	70,1%
- Qimmatli qog'ozlar	19,9%
- Ko'chmas mulklar	6,9%

2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda 33 ta sug'urta kompaniyasi faoliyat yuritmoqda. Ulardan 5 tasi hayotni sug'urtalash bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar bo'lib, bu sohaning ahamiyatlari segmenti hisoblanadi. Hayotni sug'urtalash odatda uzoq muddatli moliyaviy xavflarni qoplaydi, shu bois bu kompaniyalar barqaror investitsiyalar kiritishga intiladi. Bu ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, sug'urta sektori O'zbekistonda nafaqat moliyaviy xizmatlar ko'rsatmoqda, balki iqtisodiyotning turli sohalariga investitsiyalar kiritib, uni rivojlantirishda ham faol ishtirok etmoqda. Xavfsiz va barqaror investitsiya siyosati tufayli bu soha ishonchli moliyaviy poydevor yaratmoqda. 6,5 trillion so'mlik investitsiya bu kompaniyalar nafaqat moliyaviy xavflarni qoplayotganini, balki jamg'arma va resurslarni iqtisodiyotning turli sohalariga yo'naltirayotganini bildiradi. Bu – moliyaviy tizimga bo'lgan ishonchning oshganidan dalolat. Investitsiyalarning katta qismi (70,1%) bank depozitlariga yo'naltirilgani kompaniyalarning ehtiyyotkor moliyaviy yondashuvini anglatadi. Bu ular uchun ishonchli daromad manbai bo'lib xizmat qiladi va moliyaviy barqarolikni ta'minlaydi.

Xulosa (Заключение/Conclusion).

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyati asosan konservativ yo'nalishda shakllangan bo'lib, portfelning katta qismi qisqa muddatli depozitlar va davlat obligatsiyalariga yo'naltirilgan. Bu holat sug'urta kompaniyalarining likvidlikni ta'minlashga urg'u berayotgani bilan birga, uzoq muddatli rentabellikni pasaytiradi. Portfeldagi korporativ obligatsiyalar va aksiyalar ulushining ortishi ijobji o'zgarish sifatida baholanishi mumkin, chunki bu sug'urta kompaniyalarining rentabellikni oshirishga va portfeli diversifikatsiya qilishga intilishini ko'rsatadi. Biroq, investitsiyalarning yuqori xavfga ega segmentlariga nisbatan risklarni boshqarish tizimini yanada mustahkamlash zarur.

Xalqaro tajriba ko'rsatganidek, sug'urta kompaniyalarining barqaror moliyaviy holatini ta'minlash uchun investitsiya siyosatini kompleks yondashuv asosida ishlab chiqish, shuningdek, davlat tomonidan qulay huquqiy va moliyaviy muhit yaratish muhimdir.

Shu bois, sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyatini takomillashtirish maqsadida:

- investitsiya portfelinii diversifikatsiya qilishni davom ettirish;
- risklarni boshqarish tizimini modernizatsiya qilish;
- yuqori daromadli, ammo xavfli aktivlarga ehtiyyotkorlik bilan yondashish;
- davlat tomonidan institutsional qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish kabi choralar amalga oshirilishi lozim.

Ushbu tavsiyalar amalga oshirilganda, O'zbekiston sug'urta bozori investitsiyaviy faoliyatining samaradorligi oshadi, bu esa umumiy iqtisodiy rivojlanishga ijobji ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/References):

1. X.M.Shennaev "Sug'urta ishi" O'quv qo'llanma 2020y
2. T.S. Malikov Moliya: nazariy asoslar. O'quv qo'llanma / Toshkent Moliya instituti. – Toshkent: 2020.
3. Rejda, G. E. – "Principles of Risk Management and Insurance" 15th ed. – Pearson Education 2022, 835 p.
4. A. Karimov – "Sug'urta kompaniyalarining investitsiya strategiyasini takomillashtirish" O'quv qo'llanma 2021 yil
5. Rejepov M. Sug'urta bozori va uning rivojlanish istiqbollari. – "Iqtisodiy tahlil" jurnali, 2022, №2. – B. 45–52.
6. M. Islomov – "Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirishda investitsiyalarning o'rni" //Iqtisodiyot va ta'lim, №1 2020 yil.
7. D. Qodirov – "Sug'urta kompaniyalari uchun investitsiya siyosatni shakllantirish" "Iqtisodiyot va biznes" jurnali 2021 yil 1/5 son
8. Sharipov Sh.– "Sug'urta kompaniyalarini investitsiya portfelinii shakllantirish va boshqarish"//Iqtisodiyot va ta'lim, №4 2020 yil
9. M.S. Davidova, Milliy qayta sug'urta kompaniyasini yaratish kontseptsiyasi Moliya universiteti, Moskva, Rossiya 2017 yil
10. Antyushina V.V. "Yevropa to'lov qobiliyati, sug'urtalovchingning to'lovga layoqatsizligi standartlari va ularning moliya sektoriga ta'siri" "Iqtisodiyot va biznes" jurnali 2020 yil №1/5.